UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TABAQALI YONDASHGAN HOLDA JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISHDA UZVIYLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI

Aripov Yu.Yu. O‘zDJTSU Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish kaferdrasi professori

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. «Ta’lim to‘g‘risidagi»gi Qonunida qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimining asosi yaratildi.

Uzluksiz ta’lim-chuqur, har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli-tuman shakl, usul, vosita, uslub va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uning turli komponentlarining o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, muayyan usul va uslublarning ta’lim sharoitiga oqilona sharoitiga tatbiq etilishi uzluksiz ta’lim sifatini ta’minlaydi.

Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimi uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ta’lim turlari, bosqichlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlashni nazarda tutadi.

Shunday ekan, ta’limda uzviylikni ta’minlash muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Ayinqsa, bu muammoning yechimi umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limlari bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida barcha fanlar qatori jismoniy tarbiyadan bilim, ko‘nikma va malakalarning uzluksiz va uzviylik asosida o‘qitilishi katta ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanining mazmunini qayta tahlildan o‘tkazish, ta’lim bosqichlarini tubdan isloh qilish va hayot bilan bog‘lash bugungi kuning dolzarb muammolaridani hisoblanadi.

Shu maqsadda, mazkur maqolada bizlar quyidagi ana shu muammo yechimini jismoniy tarbiya fanini o‘qitishdagi uzviylik muammosini qisman bo‘lsada hal etish maqsadida, umumiy o‘rta maktablarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya fanining barcha bo‘limlarida sport turlariaro, nazariya va amaliyot uzviyligini ta’minlash modelini, uslubiyotini ishlab chiqish hamda ularni pedagogik asoslash zarur deb bilamiz hamda mazkur muammoga alohida e’tibor qaratdik.

Buning asosiy sabablaridan biri shuki, umumiy o‘rta maktablarida jismoniy tarbiyani o‘qitishdagi uzviylik borasida chuqur muammolar borligini bevosita tasdiqlaydi. Ulardan biri davlat ta’lim standartlari va namunaviy o‘quv dasturlaridagi uzviylikni bevosita amaliyotga, ya’ni o‘quv jarayoniga tatbiq etish muammosidir. Uni hal etish uchun o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish, xususan yangi shakl, usul va vositalarni yaratish va ulardan foydalanish lozim.

O‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslari jarayonidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasi o‘ziga xos bo‘lib, farqli ravishda individual o‘zgarishlarga ega.

Bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanishga ega bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi har xil ekanligi ta’kidlangan. Shu sababli, jismoniy rivojlanishi har xil bo‘lgan o‘g‘il va qizlarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash, jismoniy rivojlanishini ta’minlash, jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida har bir gurux uchun tabaqali yondashgan holda o‘rgatishni tashkil qilish jismoniy tarbiya jarayonida dolzarb masalalardan biridir.

Bu masalani hal kilishning asosiy yo‘llaridan biri tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya jarayonida sport turlarini o‘rgatishda uzviylikni ta’minlash ham izlanishlarning tashkil etilayotganligi alohida e’tiborga molikdir.

Ta’lim jarayonining har bir bosqichida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olib olib, dastur doirasidagi uzviylikni ta’minlash uchun har bir bosqichda ayni bir mavzuni qanday qilib, qaysi talablar asosida o‘qitish lozimligini ta’lim standartlarida keltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minmal talablaridan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim. Zururiyat tug‘ilgan taqdirda, DTSni amaliy tajribalardan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarur.

Shuning uchun o‘rta maxsus, umumiy o‘rta ta’limi muassasalari o‘quvchi-yoshlariga jismoniy tarbiya darslarida tabaqali yondashish muammolarini ilmiy ishlab chikish, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini va jismoniy rivojlanishini yaxshilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘qitishga bunday yondashuv umumiy o‘rta ta’limi muassasalari o‘quvchilarining bilimlardagi bo‘shliqlarini to‘ldirishga va amalda uzviylikni, ta’lim jarayoni markaziga o‘quvchi shaxsi qo‘yilgan tabaqalashtirilgan va tom ma’noda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1.Kirimov F.A Kurash tushaman -T:, 1990

2.Nurshin J.M, Salomov R.S, Kirimov F.A. O‘zbekcha milliy kurash sport turi, T:, 1993

3.Kirimov F.A Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T:, 2001

4.Taymurodov A.R. O‘zbek milliy kurashi, T: 1990

5.Choriyev Z, Toshpulatov J, Pahlavon qizlar , T:, 2008

6.Toshpulatov J. O‘zbek kurashi Toshkent: 2000

7. Yusupov.K Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. T. G‘afur G‘ulom 2005.

Oliy ta’lim muassasalarida sport klublarini tashkil etis va uning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish masalalari

Aripov Yu.Yu. O‘zDJTSU Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish kaferdrasi professori,
Isoev A.A. O‘ZDJTSU Sport klubi mutaxassisi

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida e’tibor qaratilishi, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi 394-sonli Qonuni (yangi tahrir), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 iyuldagi voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-247-sonli, 2024 yil 23 sentabrdagi “Xokkey sport turini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-334-sonli, 2024 yil 4 noyabrdagi “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-381-sonli, 2024 yil 4 noyabrdagi “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-382-sonli, 2024 yil 4 dekabrdagi “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va i qtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-421-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi “Davlat ta’lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli

qarorlarining ijrosini ta’minlash xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ya’niy, Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubining asosiy maqsadi: universitet talabalari, professor-o‘qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodim-izlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylarini ayniqsa yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratish. universitet talabalari va o‘qituvchilari xamda ularning oila a’zolari uchun jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish, ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularning salomatligini mustahkamlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, talabalarni sport musobaqalarga keng jalb etish.

Oliy ta’lim muassasalari Sport klubi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2018-yil 16-iyuldagi “Davlat ta’lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli qaroriga asosan,** O‘zbekiston talabalar sport assotsiatsiyasining Ijroiya qo‘mitasining qarori va Adliya boshqarmasi tomonidan ruyxatga olinnadi sung O‘zbekiston talabalar sport Assotsiatsiyasining Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi tashkil etiladi.

Oliy ta’lim muassasasii Sport klubi O‘zbekiston talabalar sport Assotsiatsiyaning quyi bo‘limi xisoblanib, Assotsiatsiyaning Ustavi, Ijroiya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizomlar, yo‘riqnomalar va qarorlar asosida tartibga solib boriladi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi va “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi yuridik shaxs sifatida o‘z mulkiga, alohida balansiga, o‘z nomi aks etilgan muhr va shtamplarga hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan bankda o‘z milliy va valyuta hisob raqamlariga hamda boshqa o‘z faoliyatiga zarur bo‘lgan rasmiy belgilari va rekvizitlarga ega bo‘lish huquqiga ega shuningdek, nodavlat, notijorat tashkilot bo‘lib, yuqori turuvchi organi O‘zbekiston talabalar sporti Assotsiyatsiyasi Ijroiya Qo‘mitasi hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasida amalga oshiradi. Har oy Davlat soliq inspeksiyasi, har chorak Adliya boshqarmasiga va Ijroiya qo‘mitaga, 1 yilda bir marotaba universitet kengash yig‘ilishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berib boradi.

Oliy ta’lim muassasasi sport inshootlari quvvatidan to‘liq va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun sport inshootlari, sport zallarida talabalar bilan o‘tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko‘lamini

kengaytirish qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shu munosabat Oliy ta’lim muassasasi “Talaba” sog‘lomlashtirish sport klubi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali uni amalga oshirish, sport inshootlari quvvatidan to‘liq va yanada samarali foydalanish, iqtidorli sportchilarni saralash va seleksiya ishlarini yaxshilash hamda moliyaviy mablag‘larni shakllantirish va sarflashning samarali shakli va tartibidan foydalanish, ularni amalda joriy etishni oshirish ayniqsa muhimdir.

Shu bilan birga Oliy ta’lim muassasasida jismoniy madaniyat va sport kafedralarining tanqdiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jismoniy tarbiya fani bo‘yicha professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan keng ko‘lamli masalalarning to‘liq ijrosi ta’minlanmagan, ayniqsa sport inshootlari quvvatidan to‘liq samarali foydalanish, iqtidorli sportchilarni saralash va seleksiya ishlarini yaxshilash, hamda aholiga pulli xizmatlar ko‘rsatish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti.

Natijada Oliy ta’lim muassasasi Sport majmualarida o‘quvchi-yoshlarni sog‘lomlashtirish va muntazam sport bilan shug‘ullanishlari uchun sport seksiyalarini tashkil etish, o‘quvchi-yoshlar va talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun sport majmualari, ta’lim muassasalari sport zallarida ular bilan o‘tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko‘lami yetarli darajada o‘tkazilmay kelinmoqda.

Yuzaga kelayotgan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun Oliy ta’lim muassasalari sport inshootlari quvvatidan to‘liq samarali foydalanish maqsadida, “Talaba” sog‘lomlashtirish sport klubi faoliyati to‘liqligicha yoki yaxshi yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu o‘z navbatida, Oliy ta’lim muassasalarini sport majmualarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va mustahkamlashga, bevosita jismoniy tarbiya va sport rivojlantirishga, aholiga pullik jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish xizmatlari ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘larini topishga hamda moliyalashtirish manbalarini izlab topishga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan yutuqlar bilan birga ayrim muammolarni bartaraf etish, Oliy ta’lim muassasasi Sport klubi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va boshqarish bilan bog‘liq quyidagilarni joriy etishni tavsiya etamiz:

Sport klubi darsdan tashqari sport to‘garaklari (seksiya) hamda quyidagi sport musobaqalarida talabalarni ommaviy ravishda ishtirokini ta’minlash uchun **sport klublarini moliyalashtirish tizimini joriy etish: 18 ta** sport turi bo‘yicha *(futbol, voleybol, basketbol, gandbol, tennis, stol tennisi, suzish, boks, taekvondo, qilichbozlik, og‘ir atletika, yengil atletika, kurash, sambo, dzyudo, belbog‘li kurash, gimnastika, badiiy gimnastika)* **“Universitet rektor kubogi”** musobaqalari; Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida **“Universiada”, “Talaba ligasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, Talaba — yugur”** sport musobaqalarini 3-bosqichda o‘tkazishda (1-bosqich — ta’lim muassasasi miqyosida; 2-bosqich — hududlar miqyosida; 3-bosqich — respublika miqyosida

(final) sport musobaqalarini samarali va uni tizimli ravishda o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

-talabalarni darsdan keyin bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish bo‘yicha sport seksiya va to‘garaklarini samarali ishlashi uchun trenerlarni mehnatiga haq to‘llash;

-talabalar orasida yosh iqtidorli sportchilarni saralab olish seleksiya) ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish;

-sport turlari bo‘yicha terma jamoalar va zahira jamoalarni shakllantirish.

- sport klub faoliyatini samarali yuritish, talabalarni sport to‘garaklari va seksilariga ko‘proq jalb etish, ularni sport musobaqalaridagi ishtirokini munosib rag‘batlantirish,

- sport klublarning moliyaviy manbasi sifatida har yili talabalar to‘lov kontrakt pullaridan tushadigan mablag‘larning **10 foizini** yo‘naltirish;

-sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari taqvim rejasiga muvofiq, har bir sport turlari bo‘yicha universitet, respublika va xalqaro turnirlarga qatnashish uchun sport musobaqalari, o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlarini doimiy o‘tkazib borish va moliyalashtirish.

- universitet terma jamoa sportchilarini sport turlari bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etishlari sport kiyimi (ekipirovka) bilan ta’minlashni moliyalashtirish.

Oliy ta’lim muassasasi sport inshootini mavjud sport zallari, sport maydonlari va suv havzasida pullik sport-sog‘lomlashtirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali “Talaba” sog‘lomlashtirish sport klubini tashkil etish asosida budjetdan tashqari mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moddiy-texnik bazani kengaytirish hamda moliyaviy ta’minotni mustahkamlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2024 yil 4 dekabrdagi “J**amoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-421-sonli qarorining 5 bandida belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida,** 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab, universitetida voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustida xokkey, suv polosi jamoaviy sport turlari bo‘yicha kamida uchta jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sherali Xoshimovich G‘ofurov, Bahodir Xoshimovich G‘ofurov o‘zbekistonda 5x5 futbol sport turini ommalashtirish orqali ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar harakat faolligini rivojlantirish // Scientific progress. 2022. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-5x5-futbol-sport-turini-ommalashtirish-or-ali-k-rish-obiliyatida-nu-soni-bor-shahslar-arakat-faolligini-rivozhlantirish (дата обращения: 15.11.2022)

6. Sherali Hoshimovich G‘Ofurov malakali sprinterchilarning sport mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari // Academic research in educational

sciences. 2021. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/malakali-sprinterchilarning-sport-mashg-

7. Л. Б. Собирова Эффективност исползования спечиалных упражнений в профилактике нарушений роста у младших школников Academic research in educationalsciences.2021.№5

8. Sherali Hoshimovich g‘ofurov, dilshod baxtiyor o‘g‘li baxtiyorov, umid abdugaforovich saidov maktabgacha yoshdagi bolalarni yengil atletika mashqlari orqali mashg‘ulotlarini tashkil etish // Scientific progress. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish (дата обращения: 13.12.2022).

5. Sherali Hoshimovich G. Ofurov Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarni mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari //Scientific progress. – 2021. – №. 8.

6. Sherali Hoshimovich G. O. MALAKALI SPRINTERCHILARNING SPORT MASHG‘ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – №. 4.

9. G‘OFUROV Sh. X. bolalar va o‘smirlar sport maktablarida boshlang‘ich tayyorlov guruhida shug‘ullanuvchi yengil atletikachilar mashg‘ulotlarini takomillashtirish //Fan-Sportga. – 2020. – №. 5. – С. 38-40.

10. M. X.Mirjamolov, R. F.Odilov, N. Y.Valiyeva, D. B.Baxtiyorov Ko‘rish qobilyatida nuqsoni bo‘lgan talabalarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uslubiyati // Academic research in educational sciences. 2021. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ko-rish-qobilyatida-nuqsoni-bo-lgan-talabalarda-harakat-koordinatsiyasini-rivojlantirish-uslubiyati (дата обращения: 22.01.2022).